

Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi va Kattaqo'rg'on tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarni saqlash ishlari bo'yicha tuzilgan

✓
SHART NOMA № 4/2 R-AYS 2022

“31” 01 2022-yil

Samarqand shahri.

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi nomidan tashkilot nizomi asosida ish ko'rvuchi N.Sanaqulov, ikkinchi tomondan matnda keyingi o'rinda «Pudratchi» Kattaqo'rg'on tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi nomidan korxona nizomi asosida ish ko'rvuchi Y.Rustamov O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi tomonidan aniq manzilli yo'l ishlari ro'yxatida tasdiqlangan umumfoydalanuv davlat ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini saqlash ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 666-685-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 1-noyabrdagi 226-son va 31.12.2011-yildagi 352-son qarorlariga asosan ushbu pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. ATAMALAR - TUSHUNCHALAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

Ijro hujjatlari - joyida bajarilgan ishlari yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda yo'llarni saqlash ishlariiga ishchi chizmalar va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatslar berkitilgan ishlari tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar ishlarni bajarish daftarlari, yo'llardan foydalanish bo'yicha ko'rik jurnallari, yo'l va ko'priklar pasportlari, harakat jadalligi qaydnomasi va boshqa yo'llarga oid hujjatlar asosida ish yuritiladi.

Karajatlar smetasi – qonunda belgilangan tartibda yuqori tashkilotlar tomonidan kelishilib, tasdiqlanadigan, oyma-oy xarajatlar moddalari bilan ko'rsatiladigan hujjat.

2. SHARTNOMANING MAQSADI.

2.1. Buyurtmachi Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Kattaqo'rg'on tumanidan o'tuvchi umumfoydalanuvdagi davlat ahamiyatiga ega avtomobil yo'lining qatnov qismi, yo'l ko'tarmasi, suv ketkazish tizimi, sun'iy mustahkamlovchi himoyalash, boshqaruvchi inshootlar, parom kechuvalari, yo'l jihozlari, dam olish joylari va tarixiy yodgorlikka borish yo'llari, kesib o'tish va chiqish yo'llari, qaytarish joylarda, doimiy ravishda paydo bo'ladigan mayda shikastlanishlar, toshqinlar va muz ko'chishi davrida yemirilishining oldini oladigan profilaktika ishlarni olib borish va uning barcha mol-mulkini O'zbekiston Respublikasi «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi harakatdagi qonuniga asosan «Pudratchi»ga avtomobil yo'llarni saqlash ishlarni bajarish uchun topshiradi, Pudratchi esa tashkilot nizomida unga berilgan vakolatlar doirasida mazkur shartnoma majburiyatlarni bajarishni zimmasiga oladi.

3. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3.1. Shartnoma bahosi 2022-yil 1-chorak tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan 453 189 000 (to'rt yuz ellik uch million bir yuz sakson to'qqiz ming) so'm, shu jumladan boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari 240 264 000 (ikki yuz qirq million ikki yuz oltmish to'rt ming) so'mni tashkil etadi, keyingi choraklarda ajratiladigan qo'shimcha mablag'lar, xarajatlar smetasiga asosan belgilanadi.

4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- avtomobil yo'llarni saqlash ishlari, tizimdagи yo'l xizmatining Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi oldidagi majburiyatlarini to'g'risidagi ko'rsatmalarga qattiq rioya qilish;

- barcha yo'l ishlari mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni buyurtmachiga topshirish;

- buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida yordamchi pudratchi korxonalar bilan shartnomalar tuzish, shartnoma mavzusi, yordamchi pudratchi korxonaning nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof-muhitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yo'l mintaqasini muhofaza qilish bo'yicha zarur, shuningdek tadbirlarni bajarilishini ta'minlash.

4.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni o'z kuchi bilan yordamchi pudratchi korxonalar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda avtomobil yo'llarini texnik soz holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi oldida to'liq javob beradi.

4.3. Pudratchi ta'mirlash uchastkalarida transport qatnovini uzlusiz va xavf-xatarsiz o'tib turishi uchun javobgardir.

4.4. Pudratchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda uch oy mobaynida surunkali belgilangan rejalarни bajarmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda intizomiy va moliyaviy chora ko'rildi.

4.5. Pudratchi obyektda bajargan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni buyurtmachi tomonidan mazkur obyekt uchun biriktirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 30 kunigacha ob'ektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni Samarqand viloyat AYBB ga topshiradi.

5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan pudratchi tomonidan yo'llarni saqlash ishlari bo'yicha va boshqa qabul qilingan majburiyatlar funksiyalariga riosa etilishini nazorat qilish,

- Pudratchidan saqlash ishlari ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

6. SHARTNOMANI BAJARISH MUDDATI.

6.1. Shartnoma 2022-yil "___" 2022-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

7. TO'LOV VA HISOB-KITOB SHARTLARI.

7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha yo'lni saqlash ishlari uchun moliyalashtirish jadvaliga muvofiq har chorakda, chorak hisobidan 40% avans to'lovi va qolgan oylardan avans chegirilib, qolgan to'lov amalga oshiradi.

7.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish moliyalashtirilgandan so'ng ishlarni bajarish aktlari (F-3, F-5) asos hisoblanadi.

7.3. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir.

Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

7.4. Buyurtmachi tomonidan Pudratchining bajarilgan ta'mirlash ishlari bo'yicha dalolatnomalar (F-3) ijro sxemalari va kerakli hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda moliyalashtirish to'xtatib turiladi.

8. ISHLARNI BAJARISH.

8.1. Buyurtmachi avtomobil yo'llarni saqlash ishlari ishlarni ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Agar Buyurtmachi Pudratchi va uning yordamchi pudratchi korxonalari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligi aniqlansa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan ta'mirlash qiyamatini ko'paytirmasdan, ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

8.3. Ishlar boshlangan paytdan ular tugallangungacha Pudratchi yo'llarni saqlash ishlari uchun ko'rik daftarinai, ta'mirlashda ishlarni bajarish daftarinai yuritadi, daftarda butun ishlarni borishi Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar aks ettiriladi.

- agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

8.4. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovechi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha-hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.5. Pudratchi Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni o'zaro belgilangan muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarni qurish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

9.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlashni boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda,
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishga olib keladigan darajada buzilganda.

9.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi pudratchiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatda to'xtatib qo'yilganda,
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmagan qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomalarning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega,
- shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlarning bir shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchi kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiy матининг 20% foizidan oshmasligi lozim.

- shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlarni tasdiqlashda asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortganligi uchun summani 5% foizi miqdorida jarima to'laydi.

- Pudratchi obyektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi obyekt shartnomaviy joriy qiy матининг 20% foizidan oshmasligi lozim.

- Muddati o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

11. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

11.1 Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal eta olmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Samarqand shahar iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. YENGIB BO'LMDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI.

12.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlarni mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday holatda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

12.2. Agar yengib bo'limaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish uchun qanday choralar ko'rinishini yuqori tashkilotlar va tegishli mutaxassislar hamkorligida muhokama qiladilar.

13. ALOHIDA SHARTLAR.

13.1 Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari me'yorlari qo'llaniladi.

13.2 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

13.3 Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

14. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

BUYURTMACHI

Nomi: Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi

Manzili: Samarqand shahar, Nabiyeva ko'ch, 3-uy

Shaxsiy x/r: 304510860184017045162118001

STIR (INN) 200711637

XXTK (OKNX) 97400

Tel/faks: 234-26-08, 234-26-59

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

x/r: 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi

Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1

STIR (INN): 201122919

MFO: 00014

XXTK (OKNX): 97160

Tel: 231-11-52

Imzo:

N.Sanaqulov

Muhr:



Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi:

Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi:

Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

PUDRATCHI

Nomi: Kattaqo'rg'on TYFUK

Manzili: Kattaqo'rg'on tumani Mullako'rpa q.

x/r: 22626000800432597003

STIR (INN) 200747393

XXTK (OKNX) 42110

Bank nomi: TIF Milliy bank Samarkand filiali


MFO: 00278

Y.Rustamov



"ТАСДИҚЛАЙМАН"

Каттакүрғон ТҮФҮК директори
Я.Рустамов
2022 йил



Каттакүрғон ТҮФҮК нинг умумфойдаланувдаги давлат ахамиятдаги автомобил йүзмаларни саклаш ишләрига 2022 йил учун харажаттар

СМЕТАСИ

| Т/р | Ходимлар вазифаси | Ходимлардын табынуштын мөнбаптынан | Механикалық кембрийдеги жаңынан 20% | Харбеттің күннен күнгөнде | Мырофото | Хамаудан 1 ойткінде | Жарынан 3 оныра | Жарынан 2 оныра | Харындағы (71Р*21Р) | Харындағы (71Р*31Р) | Харындағы (11Р*12Р+13Р+14Р) | Хамауда | Хамауда | Харындағы (15Р*30Р) | Харындағы (15Р*12Р) | Харындағы (15Р*12%) | |
|----------------------------------|---|------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------|----------|---------------------|-----------------|-----------------|---------------------|---------------------|-----------------------------|----------|------------------|---------------------|---------------------|---------------------|--|
| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Январ-март ойын | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | Йүл бүйлім бошлиғи | 2 | 9 | 1,755 | 822000 | 1442610 | 288522 | 665601 | 2394733 | 14368396 | 2885220 | | | 17253616 | 2070434 | 8626808 | |
| 2 | Йүл устаси | 2 | 7 | 1,505 | 822000 | 1237110 | 247422 | 569071 | 2053603 | 12321616 | 2474220 | | | 14795836 | 1775500 | 7397918 | |
| 3 | Ишчи | 15 | 1 | 1,000 | 822000 | 822000 | 164400 | 378120 | 1364520 | 61403400 | 12330000 | | 0 | 73733400 | 8848008 | 4915560 | |
| 4 | Ишчи | 2 | 2 | 1,053 | 822000 | 865566 | 173113 | 398160 | 1436840 | 8621037 | 1731132 | | 10352169 | 1242260 | 5176085 | | |
| 5 | Ишчи | 2 | 3 | 1,106 | 822000 | 909132 | 181826 | 418201 | 1509159 | 9054955 | 1818264 | | 10873219 | 1304786 | 5436609 | | |
| 6 | Көрөвлө | 1 | 1 | 1,000 | 822000 | 822000 | | 822000 | 2466000 | 822000 | | | 3288000 | 394560 | 3288000 | | |
| | Ж а м и: | | | | | | | | 108235403 | 22060836 | 0 | 0 | 130296239 | 15635549 | 5429010 | | |
| Ассоциацияның мөнбаптынан | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| I | Ассоциацияның мөнбаптынан | | | | | | | | | | | | | | 130 296 239 | | |
| II | Иш хакидан ажратма, 12% | | | | | | | | | | | | | | 15 635 549 | | |
| III | Материял харажаты | | | | | | | | | | | | | | 2 855 243 | | |
| IV | Транспорт харажаты, трактор ва ййүл патрул хизметтері | | | | | | | | | | | | | | 6 430 692 | | |
| V | Бошқарува амаратини саклаш | | | | | | | | | | | | | | 29 934 450 | | |
| | ХАММАСИ | | | | | | | | | | | | | | 208 925 217 | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | 394 077 392 | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | 59 111 608 | | |
| | ХАММАСИ | | | | | | | | | | | | | | 453 189 000 | | |

Бош мұхандис:

А.Шодиев

А.Бекмуродов